

SAYOHAT JURNALISTIKASIDA JANRLAR UYG'UNLIGI VA TELEVISION KONTENT SAMARADORLIGI

Yusupova Nargiza Qo'ziboyevna

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
2-bosqich magistranti*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.01.2026

Revised: 21.01.2026

Accepted: 22.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Axborot, janr,
jurnalist, ko'rsatuv,
sayohat jurnalistikasi,
tomoshabin, trevel.*

Mazkur maqolada trevel jurnalistikasida qo'llaniladigan janrlarning mazmuniy va uslubiy xususiyatlari hamda ularning television sayohat dasturlarida axborotni samarali yetkazishdagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ocherk, esse, reportaj, intervyu, sharh va suhbat kabi janrlarning sayohat media mahsulotlaridagi funksional imkoniyatlari, auditoriya bilan muloqotni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy televideniya sayohat dasturlarining gibril formatda rivojlanishi, janrlar sintezi orqali tomoshabin e'tiborini jalb etish, emotsional va informatsion ta'sirni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqiladi. "Dunyo bo'ylab" va "O'zbekiston tarixi" telekanallari misolida olib borilgan tahlillar asosida janrlar rang-barangligining dastur mazmuni, tomoshaviylik darajasi va kommunikativ samaradorlikka ta'siri aniqlanadi. Tadqiqot natijalari sayohat jurnalistikasi sohasida sifatli media mahsulotlar yaratishda janrlar uyg'unligining muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kirish

Sayohat qilish insonga ruhiy tetiklik bag'ishlaydi, yangicha qarashlar, turfa xalqlar hayoti, o'tmishi bilan tanishish, stresslardan xalos bo'lish, mustaqil qarorlarni qabul qilish kabilarda ko'maklashuvchi ko'pgina ijobiy xususiyatlarga ega sanaladi. Ushbu jarayonda odatda kishi biror hududga safarni amalga oshirishdan oldin, u haqida ma'lum ma'noda tasavvurga ega bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bu borada tasavvurlarni boyitishda trevel jurnalistikasi borasidagi bosma yoki video materiallar, internet tarmoqlaridagi blog postlar va boshqalar ast qotadi. Shu bois ham sayohat jurnalistikasi sohaning muhim tarmoqlaridan biri sifatida ajralib chiqqan bo'lib, turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi hamda o'qib o'rganiladi. Sayohat jurnalistikasida tayyorlangan kontent bevosita turizm sohasidagi oxirgi yangiliklar, voqea-hodisalar, turli hududlar, madaniyatlar, safarlarda orttirilgan tajribalar, bilimlar haqida millionlab kuzatuvchilarga ma'lumot ulashadigan jurnalistika turi bo'lgani bois janr, hamda uning xilma – xilligi alohida o'rin tutadi. Janr tushunchasi barcha davrlarda ham odamlarning axborotga qiziqishlari, uni qabul qilishga bo'lgan ehtiyoj, munosabatlariga qarab yuzaga keldi va rivojlandi. U jurnalistika paydo bo'lgandan beri o'z davriga qarab rivojlanadigan, ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib boradigan tarixiy kategoriyadir. Negaki, bugun Travel journalism nafaqat bosma ommaviy axborot vositalari sahifalarida, balki internet va televideniya ham rivojlanib bormoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi va auditoriyani axborotlashtirish usullari kengayishi travel journalism sohasining rivojlanishiga olib keldi. Hozirda telejurnalistikada sayohat dasturlarini yaratishda rang-baranglikka urg'u berish, tomoshabinni zeriktirmasdan, ma'lumotni turli shakllarda namoyish etgan holda uning qiziqishini oshirish anchagina qiyin masala bo'lib qolganini hisobga olgan holda, bir xillikdan chekinib, turli janrlarga murojaat etish davr talabi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu sohada quyidagi bir nechta janrlarni keltirish mumkin.

Asosiy qism

Ocherk - Ocherk badiiy publitsistikaning asosiy janrlaridan biridir. Ocherk so'zining lug'aviy ma'nosi ruscha "чертит, очерчивать" so'zidan olingan bo'lib, "qoralamoq, yaxlit etib ko'rsatmoq" degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ocherk muayyan muddao asosida mushohada qilingan faktlar, voqea va hodisalarning eng muhim belgilarini, kishilar harakatidagi eng asosiy xususiyatlarini badiiy-publitsistik aks ettiradi va o'quvchida yaxlit tasavvur, muayyan tushuncha hosil qiladi. Sayohat jurnalistikasida esa yo'l ocherklari kuzatuvchiga hali o'z qadami yetib ulgurmagan maskanlar, undagi ijtimoiy,

madaniy hayot, sivilizatsiya manbalari umuman olganda turli safar xotiralari zamirida dunyoni teran anglashiga ko'maklashadi. Qolaversa, safarnoma (yo'l ocherk) lar o'tmishni o'rganishda, kashf etishda muhim tarixiy manba bo'lib ham xizmat qiladi. Safarnoma janrida ijod qilgan mashhur ijodkorlar sifatida M.Behbudiy, A.Avloniy, Oybek, G'afur G'ulom, E.Vohidov, Vohid Zohidov, H.G'ulom, Jamol Kamol, X.Do'stmuhammad, M.Ali, A.Meliboyev va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Safarnomaning asosiy belgilaridan biri – bu tasvirlarning izchil va ketma-ket kelishidir. Shu bois ham yo'l ocherklarini tasvirlayotgan kishi sayohat qilishni, yangi manzillarda, yangiliklarni izlab topishga, uning noyob hali ochilmagan qirralarini ilg'ay olish qobiliyatlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ehtimol shuning uchun ham Afrikalik tadqiqotchi Devid Livingiston "Sayohat qilish uni tavsiflashdan ko'ra ancha osonroq." deya ta'kidlaydi.

Esse - Boshqa janrlardan farqli o'laroq esselar sayohat bilan bog'liq ijtimoiy hamda shu bilan birga madaniy qolaversa, hissiy o'ziga xos jihatlarni tahlil qilgan holda yozishdir. Ushbu janr mohiyatiga qaraydigan bo'lsak unda ko'pincha sayohatchining shaxsiy ko'rgan va bilganlari, boshidan o'tkazganlari haqidagi tajribalari, fikr va mulohazalari, tasavvur dunyosi e'tibor markazida gavdalanadi. Bevosita esse janrining keng imkoniyatlari, yozuvchi-shoirilar, adabiyotshunos olimlarda erkin fikrlash imkoniyatini beruvchi, an'anaviylikdan voz kechib hayotni turli bo'yoqlarda aks ettirish imkoniyatini ham beruvchi janr sifatida maydonga keldi. Zero, safarlardan ko'zlangan maqsad ham o'quvchi yoki tomoshabinning kundalik odatiy hayot tarziga o'zgarish olib kirish, ranglilik ulashishdir. Shu bois ham Nazira Qurbon "Yo'ldaman" nomli asarida insoning sayohatga ehtiyoji xususida shunday yozadi. Dunyo kezmoq, yurt tanimoq-inson qiziqishining, olamni bilishga bo'lgan intilishining bir ko'rinishi. Bu ishtiyoq uni hamisha safarga chorlaydi, yo'lga otlantiradi. Boshqa janrlardan farqli o'laroq esse janri sayohatlar mavzusiga oid yozma matnlar orqali o'quvchiga uni o'rab turgan olam va u haqidagi bilim hamda tasavvurlarni boyitishga, erkin fikrlashga ko'maklashadi. Ocherk va esse ko'proq adabiyotga xos, sayohat manzillari to'g'risida so'z orqali ta'sir etadi. Uning sayohatchisi bo'lgan o'quvchi bevosita voqealar obyektidagi go'zalliklar va o'ziga hali qorong'u bo'lgan olamni maqola yoki biror asarni o'qish davomida anglaydi. Biroq undan farqli ravishda teledasturlar kuzatuvchini avvalo so'z emas, balki tasvir imkoniyatlari orqali o'ziga jalb etadi. Sayohatga oid teleloyihalar mediasohada vizual axborotning yetakchi shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi dasturlarda makon va madaniyatning mazmuni ko'pincha matndagi izohdan ko'ra tasvir orqali tezroq va samaraliroq yetkaziladi. Shu bois,

audiovizual vositalarning ilmiy-nazariy tahlili sayohat jurnalistikasining mazmuniy tuzilishini anglashda muhim o'rin tutadi. Shu sabab hozirgi zamonaviy sayyohlik media mahsulotlari global miqyosda turli janrlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bir so'z bilan aytganda sayohat jurnalistikasi eng yorqin va qiziqarli janrlarning gibrididir deyish mumkin. Tarixiy jihatdan geografiya shoulari ilmiy hujjatli filmlar, sayohat hikoyalari qolaversa o'quv ma'ruza filmlari bilan aloqador. Zamonaviy televizion janr sifatida ular hujjatli filmlar, ta'lim dasturlari, ko'ngilochar tok-shoular, realiti-shoular, seriallar va reklama roliklarining elementlarini birlashtiradi. Sayohat ko'rsatuvlarida telejurnalistikaning muhim janrlari, reportaj, intervyu, sharh va boshqalar dastur mazmun-mohiyati, formatdagi o'ziga xoslik, axborotni yetkazishdagi rolini belgilab beradi.

Reportaj - Bu janrda sayohat tajribalari, xalqlar va ularning ijtimoiy hayot tarzi, hissiyotlar va boshqalar tomoshabin ko'ngliga yanada yaqin jonli tasavvurni ulashishga imkon yaratadi. Boisi sayohat jurnalisti bevosita kechayotgan voqealarning qoq markazida turgan holda, ma'lumotlarni, ham jurnalist ham, turist sifatida tafvirlaydi. "Reportaj" so'zi lotincha "reportare" so'zidan olingan bo'lib "yetkazish, habar berish" ma'nolarini anglatadi. Axboriy xabar, asosan Kim? Nima? Qayerda? Qachon? savollariga javob bersa, reportaj shuningdek, Qanday qilib? Qanday ravishda? kabi savollarga ham javob beradi. Shu bois ham repatajlar "birinchi qo'l" manbasi sifatida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yaxshi reportaj oqibatida o'quvchida voqea joyida mavjudlik + ishonchlilik + hamdardlik hislari paydo bo'ladi.

Intervyu - Turizm sohasidagi mutaxassislar, sayohat tarixi bilan bog'liq mashhur shaxslar, muayyan hududda yashayotgan aholi, mahalliy va xorijlik turistlar bilan suhbatlar o'tkazish kabilarni aytish mumkin. Intervyu sayohat haqida shaxsiy qarashlar bilan bog'liq bo'lib qolmagan holda, yanada chuqur va kengroq axborot olish va yetkazish manbai hisoblanadi. Bu janr haqida "Intervyu - bir shaxsning boshqa shaxs yoki shaxslar guruhidan axborot izlash va topish jarayonidir." deydi Terry Ellmore. Ayniqsa, sayohatga oid medeamahsulot tayyorlashda aniq dalillar, tahlillarni taqdim etishda, tanlangan obyekt jozibadorligini to'laqonli ochib berishda aynan intervyu janri muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqacha aytganda axborot tarqatishda intervyu janri ham betakror mavqega ega. Intervyuning lug'aviy ma'nosi o'zaro suhbat, suhbatlashishdir.

Sharh - Sayohat joylari, masalan, restoranlar, mehmonxonalar, tarixiy obidalar, me'moriy ansambillar, turizm xizmatlari kabilar haqida beriladigan baho aniqrog'i tahlillardir. Aksariyat publitsistik materiallar qatorida sharh tiliga ham aniqlik, soddalik,

ommaboplik, talablari qo'yiladi. Sharhning birinchi galdagi vazifasi yuz berayotgan yoki yuz bergan voqea, hodisani auditoriyaga tushuntirishdan iborat ekan, uning tili va uslubi o'quvchi e'tiborini jalb etishi, unga yaqinlashish vositasiga aylanishi kerak. Sayohat ko'rsatuvlari ko'ngilochar va ta'lim, tarbiyaviy loyihalar qatorida sanalgani bois soddalik ushbu janrning asosiy unsurlaridan deyish mumkin. Ayni mavzuda Erik Fixtelius "Jurnalistlik kasbida voqea, hodisalarni sharhlash muhim o'rin tutadi. Sharhlovchi biror voqeani yoki farmon, qarorni sharhlar ekan, turli hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni, bularning zahirida nimalar borligini ochib beradi."deya takidlaydi. Ahamiyatlisi, janr imkoniyatlarining sayohat materialini tanlash, tayyorlash jarayonida samarali ast qotishidir. Janrlar xilma-xilligi asosida kutilgan natijaga erishish, o'lkaning turistik jozibadorligini boricha ko'rsatishdir.

Suhbat - Tahliliy publitsistikada suhbat janri ham alohida o'rin tutadi va u axboriy janr - intervyuning mantiqiy davomi bo'lib, yoritilayotgan mavzuning mazmun-mohiyatini chuqur ochib berishi, tahliliy mulohaza va mushohadaga asoslanishi, hayotning chuqur qatlamlarini aks ettirishi bilan undan ajralib turadi hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga doir masala va muammolarini aks ettirishda ommaviy axborot vositalarining eng ommabop, eng ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan boshqa janrlar qatori trevel jurnalistikasida suhbat janri alohida o'rin tutadi. Negaki, unda jurnalist tomoshabinga nafaqat, sayohat obyekti haqida chuqurroq ma'lumot beradi, balki suhbatdosh ko'magida uning hissiy hamda madaniy jihatlarini ham yaqqol ifodalashga imkon yaratiladi. Qolaversa, xronometraj tomondan sayohat dasturlari davomiyligi boshqa yo'nalishdagi television ko'rsatuv va axborot dasturlaridan keskin farqlanadi. Shu sabab ham sayohatga oid ko'rsatuvlarni tayyorlashda aynan suhbat janri va uning imkoniyatlaridan foydalanish ko'lami hamda samaradorligi nihoyatda yuqori. Yo'ldan yo'lning farqi bo'lganday, safarning ham bir-biridan farqi bor. Hech bo'lmaganda manzilda, unga boradigan vositada, kim bilan hamroh bo'lishda va borishdan ko'zlangan maqsadda farq bo'ladi. Ayni mana shu tamoyillarni hisobga olgan holda ta'kidlash joizki sayohat dasturlari ham turli janrlar hilma-hilligi orqali bir-biridan farq qiladi. Ana shu o'zaro farq tushunchasi esa sayohat dasturlarining qiziqarli, qulay, ommabop, bir so'z bilan aytganda o'ziga xos bo'lishiga xizmat qiladi. Ilmiy manbalardan birida sayohat jurnalistikasi quyidagi qator janrlarga ajratib ko'rsatiladi. Misol uchun izlanuvchi Zarembo Daria uni quyidagi janrlarga ajratib tavsiflaydi.

- sayohat filmi

- hujjatli sayohat filmi
- sayohat reportaj
- sayohat inshosi
- sayohat shousi

Ko‘rinadiki, sayohat jurnalistikasini janrlardan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Janrlar uning gibrid formatdagi rang-barangligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Xususan tele sayohat dasturlarida asosan reportaj, suhbat, sharh, intervyu kabi janrlarga ko‘p murojaat etiladi. Boisi, trevel jurnalistikasida tayyorlangan har qanday kontentdan ko‘zlangan bosh maqsadlardan biri bu - faqat “ko‘rsatish” emas, balki “his qildirish”. Bunda tabiiyki yuqoridagi television janrlar zamonaviy media makonda alohida o‘rin tutadi.

Ho‘sh, bugun telekanlarimizda taqdim etilayotgan sayohat materiallarida janrlar rang-barangligi, ularning axborotlarni taqdim etishdagi roli qay darajada? Hozirda yurtimizdagi deyarli barcha milliy hamda xususiy telekanallarda trevelga oid ko‘rsatuv va xabarlar namoyish etib kelinadi. Masalan, Toshkent telekanalida “Toshkentnoma”, Dunyo bo‘ylab, “Всё о туризме”, Madaniyat va ma‘rifat “Uyga qaytib”, va boshqa ko‘rsatuvlar hamda qator informatsion dasturlarida berib boriladigan turizmga oid habarlarni aytish mumkin. Ular orasida “Dunyo bo‘ylab” telekanali aynan trevelga asoslangani bilan alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, “O‘zbekiston tarixi” kanali ham sayohat, hujjatli sayohat filmlarini taqdim etish, tarixga murojaat qilish orqali trevel jurnalistikasiga oid kontentlarni taqdim etishda yetakchi telekanal.

“Dunyo bo‘ylab” - telekanali 2012 -yil 31-dekabr kuni O‘zbekiston milliy teleradiokomponyasi tizimida ishga tushdi. Dastlab o‘zbek tilida(keyin rus) efir yuzini ko‘rgan telekanal dunyoning yetakchi telekanallari telemahsulotlarini litsenziya asosida namoyish etish orqali, aholiga tarix, geografiya va dunyo mamlakatlari zamonaviy rivojlanish darajasi, jahon xalqlarining o‘ziga xos milliy an‘analari va madaniyatlari, ulkan geografik kashfiyotlar, sayyoramizning turli qit‘alari, tabiati, o‘simlik va hayvonot olami haqida ma‘lumot berib, dunyoqarashni kengaytirishga, ayniqsa sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Eng muhimi telekanal aynan trevelga ixtisoslashgan O‘zbekistondagi yagona axborot manbasi sanaladi. Telekanalda “Axborot tahliliy dasturlar”, “Ma‘rifiy o‘lkashunoslik dasturlari”, “Ma‘rifiy geografik”, “Bolalar va o‘smirlar”, “Kino, video mahsulotlar va tezkor dublyaj” kabi muharririyatlar faoliyat yuritadi. Bir necha yildan buyon telekanalda “Актуально: студия”, “Актуально: криминал”, “Точка на карте”, “Всё о

туризме”, “Всё в твоих руках” singari mahalliy kontentlarda ijtimoiy, madaniy hayot aks etadi.

Telemateriallarning har biri janr va axborotni yetkazishda o'z uslubiga ega. Biroq, umumiy tahlilda telekanal dasturlarida janrlar rang-barangligi, axborotni taqdim etish va kommunikativ samaradorlik darajasi yetarli deyish biroz mushkul. Dasturlarda ko'proq vizual estetikaga urg'u qaratilishi, tomoshabin bilan muloqot sustligi natijasida subyektiv yondashuv (muallif fikr va taassuroti) asosiy o'rinni egallaydi. Materiallarda reportaj elementlari kamligi, intervyu, analitik tahlil kabilardan foydalanish samaradorligini yetarli deya olmaymiz. Keng auditoriyaga namoyish etib kelinayotgan “Всё о туризме” ko'rsatuvida O'zbekiston va dunyo xalqlari tarixi, ijtimoiy – madaniy hayot, turistik infrastruktura va boshqalar haqida hikoya qilib kelinadi. “Всё о туризме”da nafaqat jurnalist, voqea obyektida kuzatuvchi, ishtirokchi sifatida qatnashadi. Loyihada intervyu, reportaj janrlariga murojaat etilishi orqali kontent fakt va dalillarga asoslangan, ishonchli, sodda, shaxsiy hissiyotga boy tarzda taqdim etiladi. Misol uchun ko'rsatuvning 2025-yil 22,23-avgust kunlari Toshkent viloyati Parkentda o'tkazilgan “Uzum sayli” xalqaro festivalidan tayyorlangan soni mahalliy aholi ishtirokidagi reportaj va intervyular, samimiy xalqchil, yangiliklarga boy tarzda taqdim etilgan. Biroq, ko'rsatuvda tomoshabin bilan interaktivlik yetishmaydi. Bunda tomoshabindan fikr so'rash, savol berish, keyingi “sayohat nuqtasi”ni tanlashda auditoriyani jalb qilish dastur sifatini oshirgan bo'lardi. Masalan dastur davomida yoki yakunda tomoshabinga bir nechta savol (keyingi sayohat obyektimiz qayer bo'lishini istaysiz? Bugungi dastur davomida nimalarni o'rgandingiz? Dastur haqidagi fikrlaringizni quyidagi manzilga yo'llang? kabilar orqali telesayohatchi bilan o'zaro kommunikatsiyani olib borish mumkin. “Точка на карте” loyihasi 2025-yil avgust oyidagi bir necha sonlarida Samarqand, Buhoro singari tarixiy manzillarga sayohat aks etadi. Loyiha turistik / dokumental ko'rsatuv bo'lib, mamlakatlar, mintaqalar, go'zal joylar, geografik, turistik manzaralar sodda, xalqchil uslubda tayyorlanadi. Loyiha joriy yilda ham telekanalning efir tarmog'idan joy olgan. Dastur mahalliy va xorij xalqlari hayoti, odamlar, tarix, madaniyat, turizm orqali tomoshabin uchun yana yangi “nuqta” larni kashf etish imkonini yaratadi. Dasturda joy va voqealar boshlovchi kuzatuvchi, sayohatda orttirilgan tajribalar, fikr-mulohazalar orqali ifoda etiladi. Loyiha oldindan rejalashtirilgan ssenariy asosida, boshlovchi tomonidan sharhlab beriladi. Maqsad -mamlakat, shahar, tabiat yoki madaniyatni tanishtirish. Ko'rsatuv uslubiy yondashuv jihatidan sharh janriga murojaat etilgani bilan ajralib turadi. Biroq, sharh tiliga soddalik, ommaboplik qatori aniqlik va

tahlilliy talablar ham qo'yilishini yodda saqlash lozim. Ushbu dasturda esa boshlovchining hissiy kechinmalari birinchi o'ringa chiqib qolgan. Bunda muayyan hududdagi mahalliy aholi vakillarining fikrlari, hissiy qarashlari, faktlar, statistika kabilar suhbat yoki intervyu janrlari yordamida ko'proq va to'liqroq ochib berilsa loyiha yanada qiziqarli va axborotga boy tarzda yetkazib berilgan bo'lar edi. "Актуально студия" loyihasi turli mavzulardagi aktual masalalarni taqdim etib keladi. Jumladan, 02.01.2026 yana bir sonida yoshlar hayotida internet, gadjetlarning ta'siri, bola rivojlanishining asoslari xususida so'z boradi. Dastur studyada boshlovchi va mutaxassislarning o'zaro mulohazalariga asoslanish bilan chegaralangan. Bu borada jamoatchilik fikrini o'rganish masalan: blits- intervyular, sharh singari qator janrlardan foydalangan holda materiallar taqdim etilsa loyihaning tomoshaviylik xususiyati yanada ortadi.

Telejurnalistikada ayniqsa, sayohat dasturlarini tayyorlash jarayoni o'ziga xos murakkablikka ega. Boisi teleko'rsatuvning mazmuniy boyligi ko'p jihatdan unda qo'llanadigan janrlar rang-barangligiga bog'liq. Ocherk, reportaj, sharh, intervyu va suhbat kabilarni bir dasturda uyg'unlashtirish esa materialga jonlilik, harakatchanlik va tabiiylik baxsh etadi. Tomoshabinni o'ziga tortish, e'tiborini yo'qotmaslik, ma'lumotni ifodali, tez qabul qilinadigan va tasvirga boy tarzda yetkazish jurnalistdan yuksak kasbiy mahorat talab qiladi. Shu sabab televideniya janrlarining turli-tuman bo'lishi ko'rsatuvning jozibasini oshiruvchi muhim omil sifatida qadrlanadi.

O'zbekistonning sayyohlik jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi dolzarb axborot resurslarini, jumladan, O'zbekistonning betakror tarixi, o'tmishdagi buyuk alloma va olimlari, diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, an'analarini aks ettiruvchi hujjatli filmlar va teleko'rsatuvlarni yaratish va ommalashtirish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlar natijasi o'laroq 2025-yil aprel-iyun oylarida mamlakatimizga xorijdan uch milliondan ziyod sayyoh tashrif buyurdi. 2024-yilning shu davriga nisbatan xorijlik sayyohlar soni qariyb 20 foizga ko'paygani soha uchun katta yutuq hisoblanadi. 2025-yil aprelda O'zbekiston birinchi marta bir oy davomida 1 milliondan ortiq xorijlik sayyohni qabul qildi, may oyida esa yangi rekord o'rnatildi – 1,1 million sayyoh. Iyunda 1,1 millionga yaqin sayyoh yurtimizga tashrif buyurdi. Mamlakatimiz imijini oshirish, vizasiz rejimni kengaytirish, sohaga sarmoyalar jalb qilish hamda xalqaro sayyohlik ko'rgazmalari va forumlarda faol ishtirok etish borasidagi sa'y-harakatlar tufayli o'sish sur'ati davom etmoqda. Mamlakat turistik

jozibasini oshirish, madaniyat va tarixni dunyoga tanitishda “O‘zbekiston tarixi” telekanali ham muhim madaniy-ma’rifiy platformalardan biri hisoblanadi.

2019-yil 1-sentyabrdan ish boshlagan “O‘zbekiston tarixi” O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi ixtisoslashgan axborot-ma’rifiy telekanal bo‘lib, mahalliy tarix, madaniy meros, buyuk siymolar, milliy davlatchilik an‘analarini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiladi. Telekanal faoliyatida mamlakatimiz tarixining turli davrlarini ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar, faktlarga asoslangan holda yoritish, tarixiy xotirani mustahkamlash hamda milliy o‘zlikni anglash jarayonini rivojlantirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Telekanalning efir tarmog‘ini kuzatadigan bo‘lsak, asosan hujjatli filmlar, ilmiy-ma’rifiy ko‘rsatuvlar, tarixiy shaxslar va voqealarga bag‘ishlangan tahliliy dasturlar namoyish etiladi. Kontent 5 tahririyat tomonidan amalga oshiriladi: “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi va sivilizatsiya”, “Arxeologiya va muzeylar”, “Ilmiy-ommabop filmlar” tahririylari hamda “Tezkor dublyaj” studiyasi. Telekanal asosan o‘zbek, shuningdek rus tilida ham kontent tayyorlaydi. Ko‘rsatuvlarda tarixchi olimlar, chuqur bilimga ega tadqiqotchilar va soha mutaxassislari ishtirok etib, tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda materiallar taqdim etiladi. Bu esa telekanal kontentining ilmiy jihatdan ishonchliligini, dalillarga boyligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ahamiyatlisi ayrim materiallarni keng auditoriyaga har jihatdan informatsiyaga to‘yingan, qiziqarli bo‘lishini ta‘minlash maqsadida mahalliy va dunyo miqyosida tendensiya o‘rganiladi. Bugun zamonaviy media muhitida “O‘zbekiston tarixi” telekanali tarixiy mavzularni vizual jihatdan boy, auditoriya uchun tushunarli va ommabop shaklda yoritishga intilayotgani alohida e‘tiborga molik. Raqamli texnologiyalardan foydalanish, teleko‘rsatuvlarni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish orqali telekanal o‘z auditoriyasini kengaytirib, tarixiy bilimlarni ommalashtirishda muhim o‘rin egallamoqda. 2025-yil O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi tashkilotlarni qayta tashkil qilish dasturi bo‘yicha telekanallar bir qator birlashmalar tarkibiga qo‘shildi.

“O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi tarkibiga “O‘zbekiston 24”, “O‘zbekiston”, “Dunyo bo‘ylab” telekanallari hamda “O‘zbekiston 24” radiokanali;

“Ma’rifat” ijodiy birlashmasi tarkibiga “Madaniyat va ma’rifat”, “O‘zbekiston tarixi”, “Bolajon” va “Kinoteatr” telekanallari;

“Yoshlar” ijodiy birlashmasi tarkibiga “Yoshlar”, “Navo” telekanallari hamda “Yoshlar” radiokanali;

“Sport” ijodiy birlashmasi tarkibiga esa “Sport” va “Futbol TV” telekanallari o‘tkazildi. Maqsad — ish unumini oshirish va yanada sifatli media mahsulotlarini tayyorlashdir.

“O‘zbekiston tarixi” telekanalida “Manabalar so‘zlaganda”, “Qadriyatlar beshigi”, “Zamonlar osha”, “На перекрёстках истины...”(haqiqat chorrahalarida), “Buyuk yurt allomalari”, “Millat fidoyilari”, “Tarix ko‘zgusi”, “Qiziqarli tarix”, “Tamaddun darg‘alari”, “Moziy manzaralari”, “Tarix maydoni”, “Ekspeditsiya”, “Ipak yo‘li” H/f kabi ko‘pgina loyihalar o‘z toboshabinlariga ega. Ko‘rsatuv va dasturlar analitik tahlil va faktlarga boy. Tarixiy manbalarga, dokumental hikoyalarga asoslanadi. Biroq, ular ko‘proq “ma’lumot yetkazish” maqsadida ishlanadi. Vizual estetikaga e’tibor kamroq, turli manzillarga qilingan safarlarda sayohat hissi yetarli darajada deya olmaymiz, reportajlar kamroq. Bu esa tabiiyki, qaysidir qadimiy manzilga telesayohat qilish istagidagi kuzatuvchining obyektga qiziqishini, hissiy emotsiyasini kamaytirishi mumkin. Vaholanki, ekran tili ya’ni tasvir, tovush, montaj va kadr kompozitsiyasining o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi bo‘lib, u voqelikning telekommunikativ modelini shakllantiradi. Sayohat dasturlarida bu tizimning vazifasi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchisi, tomoshabinga geografik makon haqida aniq axborot berish; ikkinchisi, mazkur makonning estetik va emotsional ko‘lamini vizual tarzda his qildirishdir. Shuningdek, ekran tilining yana bir muhim komponenti - audiovizual izohdir. Atmosfera tovushlari, joyning tabiiy shovqini, mahalliy musiqa namunalari yoki jurnalistning izohli ovozi tasvirga mazmuniy qatlam qo‘shadi. Tomoshabin ekrandagi makonga bevosita guvoh sifatida kirish imkoniga ega bo‘lgandek bo‘ladi, ayni jihat sayohat dasturlarini an’anaviy matnli axborot shakllaridan keskin farqlab turadi.

Masalan, “Qadriyatlar beshigi” ko‘rsatuvida qadim hunarmandchilikdan tortib, qadriyat va an’analarimizning o‘ziga xos ko‘rinishlari, tarixi haqida so‘z boradi. Ammo ko‘rsatuv asosan intervyu janri bilan chegaralanadi. Bu bevosita mazkur loyiha formatidan kelib chiqib amalga oshirilgan. Bunda muallif yoki boshlovchi bevosita voqea ishtirokchisiga aylanmaydi. Ko‘rsatuvning mazmuniy qiymatini yanada oshirish uchun reportaj janri, vizual ko‘rgazmalar, amaliy ustaxona jarayonlari, joylarda suratga olingan jonli muloqotlar va sahnaviy rekonstruksiyalardan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, an’anaviy hunarmandchilik faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatish, tarixiy jarayonlarni qisqa sahna ko‘rinishlarida tiklash, mahalliy ustalar bilan amaliy faoliyatda ishtirok etish teleko‘rsatuvning ko‘rimlilik va ilmiy-didaktik qimmatini yanada kuchaytiradi. Bunday yondashuv nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki tomoshabinning mavzuga bo‘lgan qiziqishi, ishtiroki va hissiy bog‘liqligini ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur ko‘rsatuvning

mazmuni asosan intervyu janriga tayangani bois, unda turli sohalarning yetuk mutaxassislari, tarixchilar, xalq amaliy san'ati ustalari, olimlar ishtirokini ko'rish mumkin. Intervyu janri ilmiy-analitik axborotni birlamchi manba orqali yoritish, soha vakillarining shaxsiy tajribasi va ilmiy qarashlarini to'g'ridan-to'g'ri taqdim etish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu janrning chegaralanganligi sababli boshlovchi voqea ishtirokchisiga to'liq aylana olmaydi, mazmunning ko'rgazmalilik darajasi esa nisbatan past bo'lib qoladi. Bunda dastur formatiga biroz o'zgartirish kiritish, turli janrlarga murojaat etish, uning tomoshaviyligini oshirish barobarida, axborot yetkazishdagi ahamiyatni ham kuchaytiradi. "Qadriyatlar beshigi" dasturining mazmuniy-strukturaviy modeli kengaytirilgan taqdirda, u nafaqat milliy merosni targ'ib qiluvchi vosita, balki ta'limiy-ma'rifiy media platforma sifatida ham yanada samarali faoliyat yurita olishi mumkin. Telekanaldagi yana bir loyiha "Zamonlar osha" ko'rsatuvi ham O'zbekiston tarixining turli yillarida yuz bergan voqea-xodisalar, madaniyat, kashfiyotlar va boshqalar haqida hikoya qiladi. Loyiha asosan intervyu janriga asoslanadi. Yarim soatga yaqin loyihaning 3/2 qismi intervyuga qurilgani tomoshabinlar uchun qisman monotonlik va zerikarlilik hissini uyg'otishi mumkin. Bunda tomoshabinlarning ko'rsatuvga bo'lgan qiziqishi va ilmiy hamda madaniy mazmunni qabul qilish darajasi pasayish xavfi mavjud. Shu bois, ko'rsatuv formatini takomillashtirish va turli ko'rinishdagi kontent bilan boyitish zarurati dolzarb muammo sifatida ko'rinadi. Shuningdek, "Tarix maydoni" ko'rsatuvini olaylik. Loyiha studyada muayyan mavzu doirasida 10 nafarga yaqin soha mutaxassislari ishtirokida tok-shou shaklida olib boriladi. 25.12.2025- yildagi sonida "Uz.arxiv va uning faoliyati" haqida so'z boradi. Asosan boshlovchi tomonidan taqdim etilgan savollar doirasida tizimdagi yangilanishlar xususida ma'lumotlar taqdim etiladi. Bir soatdan ortiq davom etgan tok-shou davomida mavzu doirasida lavha, blits-intervyular, reportajlar taqdim etib borilsa, mazmunan boy, qiziqarli hamda janrlar mushtarakligi asosida yanada muvaffaqiyatli dasturlardan biriga aylanadi.

Sayohat dasturlarida tasvir va ekran tili voqelikni nafaqat ko'rsatadi, balki uni mazmunan talqin qiladi. Vizual-kommunikativ vositalarni ilmiy jihatdan o'rganish mazkur janrning estetik, madaniy va axborot funksiyalarini to'liq anglash imkonini beradi. "Dunyo bo'ylab" va "O'zbekiston tarixi" telekanali O'zbekistonda sayohat jurnalistikasining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu kanallarda janrlarning bir xilligi, kontentning yo'nalishdagi muvozanatsizligi, auditoriyaga ta'sirning bir tomonlama bo'lishi dolzarb muammo sifatida ko'zga tashlanadi. Sayohat dasturlarida janrlarning sintezi bevosita uning

jozibasini belgilab beradi. Chunki ular dastur mazmuni, uslubi va ta'sirchanligini belgilaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagilar tavsiya etiladi:

- sayohat dasturlarida turli janrlardan unumli foydalanish;
- janrlarning axborot yetkazishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratish;
- tomoshabin bilan muloqot (savol-javob, fikr olish, ijtimoiy tarmoqlar integratsiyasi)ni kuchaytirish;
- interfaol yondashuv.

Xulosa

Shuni takidlash joizki, jurnalistikaning har bir yo'nalishi, xususan trevel jurnalistikasida ham janrlarning o'zaro uyg'unligi natijasida

- axborotni aniq yetkazib berish;
- tomoshabin bilan aloqa o'rnatish;
- ishonch va emotsiyani uyg'otish;
- tabiiylik va zavq ulashish mumkin.

Bunda obyekt haqidagi faktlar, tarixiy ma'lumotlar, real odamlar hikoyasi, muallif nutqi va boshqalar bir-birini to'ldirgan holda dasturga ta'sirchanlik, tabiiylik bag'ishlabgina qolmasdan janrlarning axborot yetkazishdagi o'rnini, funksional imkoniyatlarini belgilab beradi. Qolaversa, televizion sayohatnomada voqea va faktlar shunchaki yozib olinmaydi, balki muallif nuqtai nazaridan talqin qilinadi, uning g'oyaviy-badiiy pozitsiyasidan kelib chiqib baholanadi, ifoda qilinadi. Ana shundagina sayohat ko'rsatuvlari janr va muallifning yondashuvlari asosida bir-biridan keskin farqlanadi hamda tomoshabinni zeriktirib qo'ymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazira TOSHPO'LATOVA, O'zDJTU xalqaro jurnalistika nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi.

<https://uzhurriyat.uz/2017/01/25/jurnalistikaga-janr-kerak-mi/25январь. 2017 г>

2. Климентина Исмаилова "Репортаж яратамиз" Укув кулланма

УЗБЕКИСТОН ЖУРНАЛИСТИКА ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР УНИВЕРСИТЕТИ Тошкент -2022

3. Terry Ellmore R. Mass Media dictionary USA. M.: Рус. яз., 1992. - 668 p.

4. БОСМА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИДА ЖАНРЛАР ВА МАҲОРАТ
МАСАЛАЛАРИ V жилд тошкент «O'ZBEKISTON» 2019

5. Erik Fixtelius Jurnalistikaning 10 qoidasi “sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik
komponiyasi bosh tahririyati Toshkent- 2002. 32 – bet.

6. TO‘LQIN QOZOQBOEV, MUXTOR XUDOYQULOV. JURNALISTIKAGA
KIRISH TOSHKENT «IQTISOD-MOLIYA» 2018. 252 –bet.

7. “SAFARNOMALARDA MUALLIF SHAXSI” Akbar Nurmatov O‘zbekiston
jurnalistika va ommaviy Kommunikatsiyalar universiteti Bosma OAV va noshirlik ishi
fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. 22 noyabr, 2023.

8. Ливингстон Д. Путешествия и исследования в Южной Африке с 1840 по 1855

9. Ўзбекистон Миллий Телерадиокомпанияси: Замон Билан Ҳамқадам
2016й. file:///C:/Users/acer571.Acer/Downloads/TelegramDesktop/Ўзбекистон_Миллий_Т
елерадиокомпанияси_.pdf

10. Kazakova G. Q Ijodkor Siymosiga badiiy chizgilar maqolasidan.

2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/ijodkor-siymosiga-badiiy-chizgilar-xotira-esselar>

11. <https://oz.sputniknews.uz/18:24> 01.09.2019

12. Dunyo bo‘ylab telekanali 2025-2026-yil

13. O‘zbekiston telekanali 2024-2026-yil

14. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-sayyohlik-rekordi-yangilanmoqda-uch-oyda-20-foiz-osish-kuzatildi_739178 16:27 / 11.07.2025

15. Nazira Qurbon “Yo‘ldaman” Toshkent “Aslzoda books” nashriyoti 2023-yil 6-b.

16. <https://daryo.uz/2025/01/31/ozbekiston-mtrkga-qarashli-bir-qator-telekanallar-tuzilmasi-va-ulardagi-rahbarlar-tarkibi-ozgardi/>